

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410200 – Buxgalteriya hisobi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410200 – Buxgalteriya hisobi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: TEMIRXANOVA MO'TABAR JO'RAYEVNA

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MATTHEW HOLLOW

University of York

fan doktori (DSc), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260073
Xulosa raqami	642
Xulosa sanasi	13.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"OLMALIQ DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 60-uy. Guvohnoma: MAS № 0000134, 19.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Buxgalteriya hisobi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000134, 19.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410200 – Buxgalteriya hisobi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410200 – Accounting
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410200 – Бухгалтерский учёт
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Buxgalter
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 60-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Olmaliq davlat texnika institutida mazkur ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari shakllantirilgan bo'lib, institut tuzilmasida faoliyat yuritayotgan fakultetlar, kafedralar hamda ilmiy va o'quv-uslubiy bo'linmalar ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Ta'lim dasturini amalga oshirishga mas'ul "Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasining vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan, istiqbolli rivojlantirish rejasi, ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun boshqaruv tizimining aniq tartibga solingani, ichki sifat monitoringi hamda mehnat bozori talablarini muntazam hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalarni zamonaviy iqtisodiy va moliyaviy talablar asosida shakllantirish samarali boshqaruv tizimiga bevosita bog'liq. Demak, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturi mazmunining asosiligi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. "Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasida mazkur ta'lim dasturi malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq shakllantirilgan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun

nazariy bilimlarni amaliy hisob-kitob ishlari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, audit elementlari hamda zamonaviy buxgalteriya dasturiy vositalaridan foydalanish ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar amaliy moliyaviy jarayonlarni samarali boshqarish va tahlil qilish orqali shakllanadi. Fanlarning fundamental iqtisodiy bilimlardan ixtisoslashgan kasbiy fanlarga mantiqiy ketma-ketlikda o'tishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, ta'lim dasturi mazmuni milliy ta'lim standartlari talablariga muvofiq, nazariy tayyorgarlik hamda amaliy buxgalteriya faoliyati uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturida o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishining o'quv rejasi va fan sillabuslari ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirokida, ish beruvchilarning ehtiyoj va takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. O'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish metodlari hamda baholash tartiblari ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun real hisob hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va zamonaviy buxgalteriya dasturlari bilan ishlashga yo'naltirilgan amaliy tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali shakllanadi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'lim jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Demak, o'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi standartlar talablariga muvofiq, amaliyot bilan uzviy bog'langan hamda natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturida talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Olmaliq davlat texnika institutida har o'quv yili qabul parametrlari bo'yicha abituriyentlar va boshqa manfaatdor tomonlarga ochiq axborot taqdim etish tizimi yo'lga qo'yilgan. Qabul mezonlari, talab etiladigan hujjatlar hamda qabul tartiblari aniq belgilangan bo'lib, ular rasmiy axborot manbalari orqali ochiq va shaffof tarzda e'lon qilinadi. Qabul

parametrlarining institutning mavjud resurslari va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgani hamda talabalar harakatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligi ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun talabalarni akademik va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, amaliyotga yo'naltirilgan faoliyat hamda ilmiy izlanishlarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ talablar asosida samarali tashkil etilgan bo'lib, talabalarining akademik va kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturida inson resurslari salohiyati tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Olmaliq davlat texnika instituti "Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasining professor-o'qituvchilar tarkibi mazkur ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va audit sohasidagi tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar zamonaviy moliyaviy-amaliy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ilmiy faoliyatini rag'batlantirish hamda kasbiy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarining mavjudligi inson resurslari tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, inson resurslari tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda kasbiy va ilmiy salohiyatni izchil rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturining moddiy-texnik ta'minoti tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun institutda zarur moddiy-texnik infratuzilmaning asosiy elementlari, jumladan o'quv auditoriyalari, AKT vositalari, elektron doskalar, videoprojektorlar, kompyuter texnikasi hamda o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan axborot-resurs bazasi shakllantirilgan. Buxgalteriya hisobi yo'nalishi uchun zamonaviy kompyuter sinflari, buxgalteriya hisobi va

moliyaviy tahlil bo'yicha dasturiy ta'minotlardan foydalanish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar raqamli texnologiyalar va amaliy dasturlar bilan ishlash orqali shakllanadi. Ta'lim dasturining yangi tashkil etilayotganligi inobatga olinib, ayrim resurslardan foydalanish amaliyoti bosqichma-bosqich rivojlantirilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, mavjud moddiy-texnik baza dasturni amalga oshirish ehtiyojlariga mos deb baholangan. Axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayoni va mustaqil ta'limni samarali qo'llab-quvvatlaydi. Demak, moddiy-texnik ta'minot tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Buxgalteriya dasturiy ta'minoti va kompyuter sinflari resurslaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ulushini oshirish va amaliyot bazalarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Zamonaviy buxgalteriya dasturiy vositalari va kompyuter sinflarini mustahkamlash.
- ✓ Ish beruvchilar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirib, hujjatlashtirish.
- ✓ Ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Olmaliq davlat texnika institutining 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik

ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari, Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida shakllantirilgan o'quv dasturi, malakali professor-o'qituvchilar tarkibi hamda zamonaviy moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi mavjudligini ko'rsatdi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Baholash davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq deb topildi. Shu asosda ekspert komissiyasi tomonidan 60410200 – Buxgalteriya hisobi bakalavriat ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

